

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

48 851

120,1 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

47 306

120,2 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)


7 023

134,6 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oyida)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliqchilik xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan **21,4** foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



204



Tog'-kon sanoati va ochiq
konlarni ishlash

9 888




Ishlab chiqarish sanoati

66



Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash

129



Suv bilan ta'minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 10,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 121,4 %ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili-(o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 122,1 %ga (jami sanoatdagi ulushi 96,1 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,4 %ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 98,5 %ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 103,2 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,2** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




15,1 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




23,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




7,2 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **2** barobarga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **0,8** foizga oshdi



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10



- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

968



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

37



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

69



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



155 yashash
bo'yicha xizmatlar



2 408
Oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar


2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,4 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 129,0 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 119,2 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,0 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


13




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,5 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

14




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,5 foizga oshdi



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



13,5 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




25,3 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 6,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga yoki 130,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga yoki 131,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 971 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 107,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 23,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 mingtaga yoki 127,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22,8 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 mingtaga yoki 127,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga yoki 145,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 527 tani tashkil etib, ulardan 516 tasi yoki 97,9 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 77 taga yoki 117,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 62 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belorussiya Respublikasi	7	4	3
Ozarbayjon Respublikasi	7	3	4
Qirg'iziston Respublikasi	39	30	9
Qozog'iston Respublikasi	15	13	2
Rossiya Federatsiyasi	118	92	26
Tojikiston Respublikasi	7	6	1
Turkmaniston Respublikasi	1	1	
Ukraina Respublikasi	3	2	1
Armaniston Respublikasi	4	3	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	185	254	387	429	516
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2	6	25	26	27
Sanoat	134	172	229	248	279
Qurilish	4	7	9	12	24
Savdo	16	32	68	75	106
Tashish va saqlash	4	6	9	13	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	11	13	15	16
Axborot va aloqa	3	2	4	4	4
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	8	8	9
Boshqa turlar	10	13	22	30	38

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	516	332	184
Oltiariq tumani	21	14	7
Qo'shtepa tumani	9	8	1
Bag'dod tumani	15	11	4
Buvayda tumani	10	7	3
Beshariq tumani	7	4	3
Quva tumani	24	14	10
Uchko'prik tumani	19	13	6
Rishton tumani	12	9	3
So'x tumani	6	5	1
Toshloq tumani	18	11	7
O'zbekiston tumani	26	22	4
Farg'ona tumani	24	14	10
Dang'ara tumani	16	8	8
Furqat tumani	7	4	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	172	104	68
Qo'qon shahar	68	41	27
Quvasoy shahar	32	25	7
Marg'ilon shahar	25	17	8

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

22




2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,6 %), Qo'qon shahar (12,3 %), Marg'ilon shahar (9,6 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Oltiariq tumani (4,8 %), Quva tumani (4,7 %), O'zbekiston tumani (4,7 %), Buvayda tumani (4,6 %), Toshloq tumani (4,5 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,5 %), Beshariq tumani (3,4 %), Quvasoy shahar (3,2 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,6 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,0 %), Qo'qon shahar (10,8 %), Marg'ilon shahar (7,3 %), Quva tumani (5,5 %), Oltiariq tumani (5,4 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Bag'dod tumani (5,0 %), Toshloq tumani (5,2 %), Buvayda tumani (5,1 %), O'zbekiston tumani (4,9 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Rishton tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,3 %), Beshariq tumani (4,2 %), Qo'shtepa tumani (3,6 %), Quvasoy shahar (3,5 %), Furqat tumani (3,1 %), Yozyovon tumani (2,8 %), So'x tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

24



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The menu includes "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". A search bar at the top right contains the text "Qidirish". Below the search bar, there are links for "Beynol.", "Gerb.", "Madhiya.", and "shaxsiy kabinet". The central part of the page features a search form for "STIR kodini kiritish" (Enter STIR number). The search results show a dropdown menu with options like "Xizmatlar ro'yxeti", "Elektron hisobet", "KTYADR malumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the left, there's a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports. To the right, there's a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Ahollini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-releiflari", "Choraklik nafijalar", "Nashriar – statistika haqida", "Usulby materiallar", and "Sanoat mahlusdilari ishlab chiqaruvchilar".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish
bo'limi Tel.:73 244-65-76**